

M. TILAKOVA

**YUQORI SINF
O'QUVCHILARINING
KREATIVLIK
QOBILİYATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**JIZZAX VILOYAT PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI
OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH INSTITUTI**

M. TILAKOVA

**YUQORI SINIF O‘QUVCHILARINING
KREATIVLIK QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

TOSHKENT – 2016

UO‘K: 373.524

KBK 74.200.5

T-49

T-49 M.Tilakova. Yuqori sinf o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 172 bet.

ISBN 978–9943–11–268–1

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosiy prinsiplari qatorida quyidagilarga: ta’lim va tarbiyaning uzviy birligi, mashg‘ulotlarning nufuzliligi, ma’lumotlilik, yuksak intellekt, yangicha ijodiy tafakkur, o‘quvchilar qobiliyatlarining ochib berilishi, ijtimoiy-kommunikativ faollik, ta’limning milliy yo‘nalganligiga e’tibor berilgan. Mana shu maqsadlarda – ta’limni inson-parvarlashtirish, gumanitarlashtirish, uning amaliy yo‘nalganligi asosida ta’lim tizimi, mazmunini modernizatsiyalash, o‘quv texnologiyalari, shakllarini modifikatsiyalash, metodlarining innovatsiyaviyligi va yangi axborot vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu esa teng darajada, o‘quvchilarning eng muhim kreativ – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham taalluqlidir.

Kreativlik – shaxsning rivojlanishi, uning har tomonlama takomillashishi va mahsuldor-foydali ijtimoiy shakllanishining mustahkam kafolati va ishonchli omilidir. Kreativ, intellektual-ijodiy rivojlangan yoshlar davlat tayanchi, jamiyat, mamlakat rivojlanishining barcha sohalaridagi muvaffaqiyatlarga erishish poydevori hisoblanadi.

Shaxs rivojlanishining muhim mezoni kreativlik – ijodkorlik hisoblanadi. Kreativlik – shaxsning ijod qilish qobiliyatini ko‘rsatuvchi tavsifidir. Shaxsning asosiy kreativ qobiliyati, uning intellektual-ijodiy qobiliyati hisoblanadi. O‘quvchilarning kreativligi, kreativ intellektual-ijodiy qobiliyatlari shaxs, jamiyat, mamlakatning katta boyligidir. Shuning uchun ham bu muammo tezkor o‘rganilishi, tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan muammolar sirasiga kiradi.

O‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan, uning nazariy-pedagogik va amaliy yechimini talab qiladigan ijtimoiy-pedagogik mumamo sanaladi.

Monografiya kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etishda ta’limning boshqaruv organlari rahbarlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, ta’lim muassasalari xodimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar hamda magistrilar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 373.524

KBK 74.200.5

***Mas’ul muharrir:* Sh.Q. Mardonov – p.f.d., professor**

***Taqrizchilar:* S.K. Annamuratova – p.f.d., professor;
B.X. Xodjaev – p.f.n, dotsent.**

Jizzax viloyat pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ilmiy Kengashi qarori bilan nashr etildi.

ISBN 978–9943–11–268–1

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

KIRISH

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha jabhalarida zamonaviy shaxs kreativligi muammosi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Rivojlanayotgan jamiyatga ijodiy, eng avvalo, intellektual-ijodiy, dadil, noan'anaviy va o'ziga xos tarzda fikrlashga, muammolarni samarali hal qilishga qodir bo'lgan shaxslar zarur. Zamonaviy jamiyatga o'zini faoliyatning turli jabhalarida namoyon etishga qodir kreativ shaxslar kerak. Bugungi kunda kreativlik shaxsning muhim mezon bo'lib, uning yaxlit rivojlanish omili sanaladi. Shuning uchun davlat ta'lim siyosatida kreativlikka, intellektual darajadagi faol ijodga, alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston ta'lim siyosatida o'quvchilarning asosiy sifatleri va qobiliyatlarini rivojlantirishda, ularning ijodiy sifatleri – shaxsning ijodiy potensialiga urg'u berilgan. Bugungi kunda intellektual-ijodiy tafakkurga alohida e'tibor berilishi bejiz emas, albatta, chunki zamon bugungi kun yoshlaridan yangicha dadil, o'ziga xos ijodiy, tashabbuskor, innovatsiyaviy-novatorlik, konstruktiv fikr yuritishni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalarida ta'lim jarayonida yoshlar shaxsining ma'naviy, intellektual va ijodiy potensialiga, ularning uyg'un rivojlanishiga tarixiy-madaniy meros ustuvorligi asosida jiddiy e'tibor berish zarurligi necha bor alohida ta'kidlanadi, chunki bu muhim davlat ahamiyatiga molik bo'lgan muammo hisoblanadi. "Biz bir haqiqatni anglab olishimiz, uni asosiy maqsadlar sifatida belgilashimiz hamda uning ustuvorligini ta'minlashimiz lozim. Ya'ni: ...bizning davlatimiz faqatgina bilim, ta'lim darajasini, intellektual potensialni oshirgan holda rivojlangan mamlakatlar qatorida munosib o'rinni egallashi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, biz faqatgina yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy jihatdan boy, barkamol rivojlangan, o'z ildizlarini chuqur anglagan, buyuk ajdodlar vorislari ekanligini bilgan insonlar sifatida tarbiyalagan holda, o'z ulug'vor maqsadlarimizga erishishimiz mumkin" [16].

Prezident I.A.Karimov "xalqimizning milliy qadriyatlariga sodiqlikni saqlab qolish"ga chorlaydi, "...ajdodlarimiz qimmatli meroslariga, umuminsoniy qadriyatlariga tayanuvchi, mustaqil dunyo-

qarashga va mustaqil tafakkurga ega bo'lgan ma'naviy boy, axloqiy tarbiyali, barkamol rivojlangan shaxsni tarbiyalashni" muhim, deb hisoblaydi [11, 47-62]. Shuningdek, "madaniyatimiz asoslariga qaytishni, boy tarixiy o'tmishimizdan eng yaxshilarini qabul qilish va rivojlantirish"ni asosiy vazifamiz, deb hisoblaydi [4, 52]. Prezidentimiz ta'lim-tarbiya jarayonining metodlari va metodikasida birinchi navbatda o'qituvchi va o'quvchilarning kreativliklarini namoyon qilishlari uchun nihoyatda keng imkoniyatlarni taqdim qiladigan sinfdan tashqari sharoitlarda modifikatsiyalashgan mazmun, yangi texnologiyalar, innovatsiyalarni izlash zarurligini ta'kidlaydi. Ijodiy fikrlaydigan shaxsga ham ta'lim subyekti, ham ta'lim obyekti sifatida qarash talabi tobora ortib bormoqda.

"Kreativlik" tushunchasi mazmunan ijtimoiy-statusli hodisa sanaladi. Kreativlik – shaxsning rivojlanishi, uning har tomonlama takomillashishi va mahsuldor-foydali ijtimoiy shakllanishining mustahkam kafolati va ishonchli omilidir. Kreativ - intellektual-ijodiy rivojlangan yoshlar davlat tayanchi, jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi, mamlakat taraqqiyotining barcha sohalaridagi muvaffaqiyatlarga erishish poydevori, deb e'lon qilinadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy prinsiplari qatorida quyidagilarga e'tibor berilgan: ta'lim va tarbiyaning uzviy birligi, mashg'ulotlarning nufuzliligi, ma'lumotlilik, yuksak intellekt, yangicha ijodiy tafakkur, o'quvchilar qobiliyatlarining ochib berilishi, ijtimoiy-kommunikativ faollik, ta'limning milliy yo'nalganligi. Mana shu maqsadlarda ta'limni insonparvarlashtirish, gumanitarlashtirish, uning amaliy yo'nalganligi asosida ta'lim tizimi, mazmunini modernizatsiyalash, o'quv texnologiyalari, shakllarini modifikatsiyalash, metodlar innovatsiyaviyligi va yangi axborot vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu esa teng darajada, o'quvchilarning eng muhim kreativlik – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham taalluqlidir.

Demak, yuqori sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini, ayniqsa, ularning intellektual-ijodiy qobiliyatlari bilan bog'liq holda ochib berish va rivojlantirish, ularni dadil va faol namoyon etish hamda ijtimoiy-kommunikativ sharoitlarda mahsuldor, eng yangi pedagogik yutuqlar asosida, shuningdek milliy-madaniy mazmunda (nazariya va amaliyotda) amalga oshirish – bu o'sib kelayotgan yosh avlodda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini hal qilishning zamonaviy ustuvor ijtimoiy-pedagogik yo'nalishidir.

Aynan shu munosabat bilan chet tillarni o'rganishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Yurtboshimiz I.A.Karimov turli sohalarda, shu jumladan, tarixiy-madaniy sohadagi sherikchilikni shunday ta'kidlaydi: "Bugungi kunda jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun bizning odamlarimiz tomonidan chet tillarni mukammal bilishining ahamiyatiga ortiqcha baho berish qiyin, axir xalqimiz o'z kelajagini xorijiy sheriklar bilan hamjihatlikda, hamkorlikda ko'radi" [9, 9]. "Bizga bilimdon, aqlli, ma'lumotli, anjumanlarda har qanday sohadagi yetakchilar bilan erkin munozara olib borishga tayyor bo'lgan odamlar zarur" [8, 31].

2012-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi [18]. Unda "jahon sivilizatsiyasi" va o'z xalqi va boshqa xalqlar madaniyatiga e'tibor qaratish lozimligiga urg'u beriladi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy, milliy ahamiyatli qadriyatlar ta'kidlanadi. Bunda ingliz tilida muloqotga kirisha bilishga alohida e'tibor qaratiladi. Yoshlarning yangi avlodini tarbiyalashda ingliz tiliga muhim ahamiyat va o'rin beriladi. Ayniqsa, jahon va milliy tarixiy-madaniy materiallarini o'rganishda ingliz tiliga murojaat qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Shunday qilib, o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish davlat ahamiyatidagi va ijtimoiy-pedagogik moliklikdagi muammo sanaladi. Zamonaviy ta'limning birinchi darajali vazifasi – bu yuqori sinf o'quvchilarining asosiy kreativlik – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish sanaladi.

Binobarin, yangi avlod shaxsining kreativligi – ijodiy rivojlanishi, uning yuksak idrok qilish faolligi, intellektual-ijodiy (ijodiy kreativlik tafakkuri: dadil, turlanuvchan, rang-barang, mantiqiy-tahliliy, o'ziga xos, nostandart, yangi "o'z" ijodiy tasavvurga ega bo'lgan, tugallangan, umumlashtirilgan, mahsuldor) kabi muhim qobiliyatlarining rivojlanishi - zamon talabi bo'lib, u yoshlarning o'qishda, hayotda, mehnatda ijtimoiy muvaffaqiyatlarining asosidir.

Yuqori sinf o'quvchilarning bunday kreativligining muvaffaqiyatli rivojlanishi o'qishdan tashqari sharoitlarda, ayniqsa, xalqimiz va boshqa xalqlarning tarixiy-madaniy merosini, masalan, O'zbekiston hududida saqlanib qolgan milliy boyligimiz va jahon qadriyati hisoblangan, dunyoga mashhur me'morchilik yodgorliklarini o'rganish jarayonida, kechishi mumkin. Buning ustiga hozirgi yoshlarimiz, ayniqsa, yuqori

sinf o'quvchilari xalqimiz tarixi va madaniyatiga faol qiziqish bildirmoqdalar.

Demak, shaxs rivojlanishining muhim mezonini kreativlik – ijodkorlik hisoblanadi. Kreativlik – shaxsning ijod qilish qobiliyatini ko'rsatuvchi tavsifidir. Shaxsning asosiy kreativlik qobiliyati, uning intellektual-ijodiy qobiliyati hisoblanadi. Yuqori sinf o'quvchilarining kreativligi, ya'ni intellektual-ijodiy qobiliyatlari shaxs, jamiyat, mamlakatning katta boyligidir. Shuning uchun ham bu muammo tezkor o'rganilishi, tadqiq qilinishi zarur bo'lgan muammolar sirasiga kiradi.

Shunday qilib, yuqori sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan, uning nazariy-pedagogik va amaliy yechimini talab qiladigan ijtimoiy-pedagogik muammo sanaladi.

Muammoning pedagogika fanidagi ahvoli. Ma'lumki, ijodiy rivojlanish – bu muhim va bitmas-tuganmas muammolar qatoridan o'rin olgan.

O'tgan asrning 20- va 30- yillarida maktab o'quvchilari shaxsining ijodiy rivojlanishi muammosiga quyidagi atoqli rus pedagog-olimlari o'z ilmiy izlanishlarini bag'ishlaganlar, bular: A.V. Lunacharskiy, P.P. Blonskiy, S.T. hatskiy, B.L. Yavorskiy, B.F. Asafev, N.Ya. Bryusova, keyinchalik – V.N. Shatskaya, N.L. Grozdenkaya, M.A. Rumer, G.L. Roshal, N.I. Sats va b.

Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda o'quvchilar ijodi, ijodiy faoliyatining xususiyatlari ham aniqlangan (V.V. Davidov, B.M. Teplov, L.S. Rubinshteyn) [68; 195; 173;].

Ijodiy qobiliyatlar nazariyasi L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, D.B. Elkonin kabi mashhur olimlarning ishlarida yoritilgan [59; 108; 109; 224]. Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning tadqiqotlarida o'quvchilar kreativligi – ijodkorligining rivojlanishi kuzatilgan hamda unga shaxs rivojlanishining asosiy yo'nalishi sifatida qaralgan. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni, bu jarayondagi rivojlanish shart-sharoitlari, yo'nalishlari va pedagogik vazifalari tadqiq etilgan (ulardagi asosiy komponentlarni aniqlash bilan). Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, dissertatsiya tadqiqotlarida o'quvchilar kreativligi muammosi eng avvalo, “yangi ta'limiy mahsulot”larni yaratishga qaratilgan, ijodiy tafakkur, ijodiy tasavvurning ustuvorligi, o'quvchilar tomonidan ijodiy topshiriqlarning bajarilishi jarayonida faoliyatni takomillashtirish bo'yicha kompleks imkoniyatlar va harakatlar nuqtayi nazaridan ko'rib

chiqilgan. Olimlar “ijod” va “ijtimoyilashish”ga - tasavvur rivojlanishi bilan o‘zaro aloqadorligiga urg‘u beradilar.

Ijodkorlik muammosining turli jihatlarini va masalalarini, shu jumladan, ijodiy tasavvur faoliyatiga oid tomonlarini mashhur olimlar L.S. Vigotskiy, V.V. Davidov, A.N. Leontev, L.S. Rubinshteyn, B.M. Teplov, D.B. Elkonin [59; 68; 109; 173; 195; 224] va boshqalar tadqiq etganlar.

Zamonaviy psixologik, psixologik-pedagogik izlanishlarda quyidagilar: tafakkur asoslari, aqliy rivojlanish va ijod, tafakkur va ijod, ijodiy qobiliyat kabilar tadqiq etilgan.

Tafakkur asoslari: S.L. Rubinshteyn tafakkur jarayoni asoslari - tahlil, sintez, umumlashtirish qonuniyatlarini [173]; L.S. Vigotskiy, L.F. Obuxova – o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishini [59]; A.M. Matyushkin – tafakkur psixologiyasini [123]; N.S. Leytes – o‘quvchilarning tafakkur qobiliyatlarini [107]; I.S. Yakimanskaya, Z.I. Kalmikova [227; 87]lar – o‘quvchilarning bilim va tafakkurini; G.I. Melxorn, X.G. Melxorn – tafakkur rivojlanishini tadqiq etganlar [127].

Aqliy rivojlanish: P.YA. Galperin, L.A. Ponomarev – tafakkur va aqliy rivojlanishni [50; 133]; A.V. Brushlinskiy, Z.I. Kalmikovalar mahsuldor tafakkur muammolarini o‘rganganlar [38; 73].

Ijod, tafakkur va ijodkorlik: A.N. Luk – ijodkorlik psixologiyasi [114]; I.P. Volkov, S.S. Goldendrixt, N.I. Kiyashenko, N.L. Leyzerov – estetik ijod [55; 63; 92; 106]; A.N. Luk – tafakkur va ijodkorlik [114]; V.I. Andreev – ijodiy o‘zini o‘zi o‘stirishdagi evristika [25]; A.V. Petrovskiy – shaxs rivojlanishidagi faraz [158]; I.N. Semenov, S.Yu. Stepanov – ijodiy tafakkurdagi refleksiya to‘g‘risida [181].

Ijodiy tasavvur: L.S.Korshunova – bilishdagi tasavvur [100]; L.S.Vigotskiy – tasavvur va ijodkorlik [59]; A.Dudetskiy – ijodiy tasavvur [72]; O.M.Dyachenko – tasavvurni rivojlantirish xususiyatlari to‘g‘risida [70].

Ijodiy qobiliyatlar: D.B. Bogoyavlenskiy – ijodiy qobiliyatlarni tadqiq qilish predmeti to‘g‘risida [46]; V.N. Drujinin, L.A. Vengerlar – umumiy qobiliyatlar [71; 53]; L.V. Ermolayeva-Tomina, M.G. Volkova, B.P. Nikitin, A.V. Nikitina – o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari bo‘yicha tadqiqot ishlarni olib borganlar [75; 56; 144; 145] va hokazo.

Tasviriy san‘at va musiqa sohasida o‘quvchilar ijodiga quyidagi pedagog-olimlar murojaat qilishgan: B. Nemenskiy, Yu.B. Aliyev, O.A. Apraksina, V.K. Beloborodova, V.N. Shatskaya [143; 24; 30; 42;

217] va b. Quyidagi mavzular tadqiq qilinmoqda: o‘quvchilar ijodi pedagogikasi – V.S. Shubinskiy [220]; ijodiy tafakkurning aqliy rivojlanish metodlari – P.Ya. Galperin [61]. Maktab o‘quvchilari uchun ijodiy topshiriqlar – E.A. Seliverstova [180]. O‘quvchilarning ijodiy ishlari ishlab chiqilmoqda – A.M. Nazarova [141]. O‘qish jarayonida o‘quvchilar ijodini tadqiq qilish faollashtirilmoqda – B.I. Korotyayev [99]. I.Ya. Lerner, M.N. Skatkin, P.I. Pidkasistiy [110; 182; 159] va boshqalar o‘z tadqiqotlarini o‘quvchilarning ijodiy faoliyati, rivojlantiruvchi ta’lim, bilish nazariyasi, mo‘ljal olish, amaliy funksiyalar (ularning natijaviy-strategik xususiyatiga darajalari bo‘yicha) kabi ijodiy topshiriqlarni bajarish muammolariga bag‘ishlaganlar.

Shunday qilib, intellekt va tafakkur, qobiliyat va ijod, ijodiy qobiliyatlar (o‘quvchilarning) alohida tadqiq qilinmoqda. Va hattoki, ularning kompleks bajarilishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham mavjud: D.B. Bogoyavlenskaya [47]; Yu.U. Foxt-Babushkin, E.K. Puxman o‘quvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishi muammolari bilan shug‘ullanishgan [207; 183,7].

Tasviriy san’at, musiqaning turli fanlarni o‘qitish jarayonida, hattoki, tarixni o‘rganish jarayonida intellektual-ijodiy yo‘nalish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Yu.M. Kamenev – tarix va madaniyat yodgorliklarini o‘rganishda [89]; L.A. Molchanov – ikkinchi jahon urushi tarixini o‘rganishda tarixiy yodgorliklariga murojaat qilgan holda [129]; V.V. Lolua, L.L. Djikiya – o‘z mamlakati madaniyati yodgorliklarini o‘rganishda [113]; L.P. Kuznetsova – o‘quvchilarni tarixiy-madaniy meros bilan tanishtirishda [103]; V.G. Butenko, S.P. Matulaytene – tarix va madaniyat yodgorliklarining badiiy qiymatiga e’tiborini qaratadi [49].

Demak, tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganish jarayonida intellektual-ijodiy yo‘nalishga ma’lum darajada qiziqish bor. Biroq muammoni hal qilishga oid ilmiy-pedagogik tizim to‘liq shakllantirilmagan.

Rossiyada shaxsni kompleks shakllantirish Markazi tomonidan o‘quvchilarning ijodiy rivojlanish darajasini oshirishga qaratilgan “Maktab o‘quvchisining ijodiy potensialini rivojlantirish” nomli rivojlantiruvchi dastur yaratilgan, shuningdek, unda o‘quvchilarning intellektual rivojlantirishi va o‘z-o‘zini baholashi, o‘zini o‘zi hurmat qilishi hamda o‘z qadrini bilish tuyg‘usini shakllantirishga urg‘u berilgan. Dastur dolzarb va kerakli, biroq uning maqsadini aniqlashtirish, maktab o‘quvchilari shaxsining kreativligiga urg‘u berish,

intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kabi komponentlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilar ijodi muammosiga bag‘ishlangan quyidagi tematik to‘plamlar nashr qilinmoqda: “Ijod – maktab o‘quvchisining bilimga muhtojligini rivojlantirish manbai” [192], “Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish” [169], “O‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirish” [168], “O‘quvchilarning ijodiy anglash faoliyatini qayta tiklashi” [57], “O‘quvchilarning mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirish” [168], “Qobiliyatlar va qiziqishlar” [187], “O‘quvchilar ijodiy faolligini rivojlantirish” (dialogda) [169] va hokazolar.

Navbatda, o‘sib kelayotgan avlod shaxsining kreativlik – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, takomillashtirishga qaratilgan ilmiy ishlar, tadqiqotlar, to‘plamlar turibdi.

Yangi avlodning intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhimligi va dolzarbligini ta’kidlovchi konseptual ijtimoiy-pedagogik ishlar paydo bo‘lmoqda: G. Melxorn va X. Melxorn [127]; yosh avlodda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi – hayotiy muvaffaqiyat garovi mavzusini M.G. Volkova o‘rganmoqda [56].

Shunday qilib, Rossiyada maktab o‘quvchilarining ijodiy rivojlanishi muammosi psixologik va pedagogik yo‘nalishlarda o‘z yechimini topmoqda. Ammo yuqori sinf o‘quvchilarida shaxs kreativligi, eng muhimi, kreativlik – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mavzusi tadqiq etilmay kelmoqda.

Muammoning O‘zbekiston pedagogika ilmidagi ahvoli. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi har doim ham nihoyatda dolzarb bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. O‘zbekiston ta’lim siyosati, ta’lim va tarbiyaning yangi yo‘nalishlari va vazifalari mazmunida milliy pedagogika fani va amaliyotining rivojlanishi yanada dolzarb ijtimoiy-pedagogik mohiyatga ega muammo bo‘lib qolmoqda. Bu muammo gumanitar yo‘nalishdagi deyarli barcha pedagogik tadqiqotlarda tilga olib o‘tilmoqda. S.Sh. Shermuhamedov, T.M. Mahmudov, M.O. Ochilov [219; 125; 154], Sh.E. Qurbonov, E.A. Seytxalilov [104; 105] kabi olimlarning falsafiy-pedagogik va metodologik-nazariy tadqiqotlari bunga asos bo‘lib xizmat qiladi. Pedagog-olimlarimiz nafaqat ta’lim jarayonida, balki yuqori sinf o‘quvchilarini sinfdan tashqari sharotlarda estetik, badiiy-estetik jihatdan tarbiyalash jarayonida ham o‘quvchilarning ijodkorligiga murojaat qiladilar. Jumladan, S.K. Annamuratova [27], M. Boboxonov [34], N.M. Kevish [91], R.S. Muhamedova [139], S.X. Fayzullina [201], A. Hasanov [208]



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/3994> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3994> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3994>